



AHOLI TURMUSH DARAJASIDAGI TAFOVUTLARNI STATISTIK O'RGANISHNING AHAMIYATI

*Ilyosova Dilbar Ismoil qizi -
Kadrlar malakasini oshirish va statistik
tadqiqotlar instituti doktoranti (PhD)*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a71

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi turmush darajasidagi tafovutlarni statistik o'rganishning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Aholining turmush darajasini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi o'rganilgan va statistik tahlil qilingan. Respublikamiz aholi turmush darajasi va uni oshirishga ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, ilmiy-nazariy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: renta, ko'chmas mulk, dividend, turar joy, budget, indeksatsiya, mehnat haqi, transfert daromadlar, nafaqa, tadbirkorlikdan olingan daromadlar, iste'mol savati, aholi daromadlari, oziq-ovqat iste'moli, ijtimoiy to'lovlar, modernizatsiya, diversifikatsiya, aholi daromadlari.

ВАЖНОСТЬ СТАТИСТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ РАЗЛИЧИЙ В УРОВНЕ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

*Илёсова Дилбар Исмоил кизи -
Докторант переподготовки кадров и
статистических исследований(PhD)*

Аннотация. В данной статье рассматривается значение статистического изучения различий в уровне жизни населения. Изучена и статистически проанализирована система статистических показателей, представляющих уровень жизни населения. Проведена статистическая оценка уровня жизни населения республики и факторов, влияющих на его повышение, даны научные теоретические рекомендации.

Ключевые слова: рента, недвижимость, дивиденды, жилье, бюджет, индексация, заработная плата, трансфертный доход, пособие, доход от предпринимательства, потребительская корзина, доход населения, потребление продуктов питания, социальные выплаты, модернизация, диверсификация, доход населения.

THE IMPORTANCE OF STATISTICAL STUDY OF DIFFERENCES IN THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION

*Ilyosova Dilbar Ismoil kizi -
Personnel training and statistics
doctoral student of the Institute of research(PhD)*

Annotation. This article discusses the importance of statistical study of differences in the standard of living of the population. The system of statistical indicators representing the standard of living of the population has been studied and statistically analyzed. The statistical assessment of the standard of living of the population of the republic and the factors influencing its increase is carried out, scientific theoretical recommendations are given.

Key words: rent, real estate, dividend, accommodation, budget, indexation, labor remuneration, transfer income, pension, income from entrepreneurship, consumer basket, population income, food consumption, social payments, modernization, diversification, population income.

Kirish. Har qanday jamiyatning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi, tinchligini ta'minlash hamda inson sog'lom va farovon hayot kechirishi uchun davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi zarur.

Shuni hisobga olib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan biri – aholini kuchli ijtimoiy himoyalash masalalariga qaratildi.

Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Aholining moddiy ehtiyojlariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i va uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan talablari kiradi. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlariga insonlarning bilim, mala-

kasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabilarga bo'lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishining asosiy maqsadidir. "Turmush darajasi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Ushbu jihatlar jam bo'lib, umuman, jamiyat va xususan, uning ayrim a'zolari farovonligi to'g'risida tasavvur beradi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistonda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga javob beradigan turmush darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tug'ildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda so'nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan "turmush sifati" konsepsiyasining ayrim qoidalardan foydalanish mumkin.

Turmush sifati konsepsiyasi inson jamoalari-ning jismoniy, aqliy va ijtimoiy barkamolligini belgilovchi shartlarni shakllantiradi. Bu yerda gap faqat turmush sifati (ovqatlanish, uy-joy, ish bilan bandlik, ta'lim darajasi)ni baholovchi obyektiv omillar haqida emas, balki inson tomonidan o'zining farovonligi, baxt, qoniqish, rohat kabi tushunchalarni subyektiv his etish to'g'risida ham bormoqda. Masalan, sog'liq darajasi, oilaviy munosabatlar, ishi, moddiy ahvoli, yaratuvchanlik qobiliyati va hokazolardan qoniqish hayotdan qoniqish hosil qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shunday qilib, turmush sifati konsepsiyasi insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar ehtiyojlarning qondirilganligi va mavjud imkoniyatlarni kutilgan imkoniyatlarga mosligi darajasini tavsiflaydi.

Turmush darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasini to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakat aholisi turmush darajasini baholash va bu boradagi izlanishlar XX asrning 20-yillarida boshlanib, bu borada I.I.Eliseyeva, V.N.Salin, V.I.Rutgayzer., V.F.Mayer., N.I.Buzlyakov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning ilmiy izlanishlarida aholi turmush darajasi o'z mamlakatlari aholisining turmush tarzi, ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi hamda rivojlanishini hisobga olib, ilmiy tadqiq etilgan. Bularning barchasi aholi turmush darajasini o'rganish sohasida bo'layotgan izlanish su'ratlariga, ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan Yo.Abdullayev, Q.Abdurahmonov, N.Zokirova, N.M.Soatov, M.G.Nazarov, X.Abulqosimov, A.Vahobov, G.Saidova, S.G'ulomov, B.G'oyibnazarov, E.Akramov, X.Muxitdinov, A.O'lmasov, R.Xasanov, Sh.Shodmonov, M.Xakimova, D.Rahimova va boshqalar o'z asarlarida keng bayon etganlar.

I.I.Eliseyeva fikricha, O'zbekiston hududlari aholisining pul daromadlari darajasi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi sezilarli tabaqalanishning mavjudligi bilan baholanadi. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq. Ulardan biri strategik ahamiyatga molik tabiiy xomashyo resurslari konlarining notekis joylashganligidir: odatda, har bir bunday kon yaqinida tegishli qayta ishlash zavodi bunyodga keladi [1].

V.N.Salin: "Aholi turmush darajasi"- bu aholining iste'moli qondirilishining moddiy imkoniyatlarini tavsiflaydi. U o'z ichiga ijtimoiy hayotning turli ijtimoiy jihatlarini: mehnat sharoiti, aholi daromad-

lari va xarajatlari darajasi va tuzilmasi, bo'sh vaqtdan foydalanish, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va hokazolarning rivojlanish darajasini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotning ijtimoiy tomonlarini miqdoriy tavsiflash ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar yordamida amalga oshiriladi hamda aholi turmush darajasi va ijtimoiy rivojlanishini statistik o'rganish predmeti hisoblanadi", - deb ta'riflaydi [2].

V.I.Rutgayzer fikricha, aholining pul daromadlarini tahlil qilish o'z-o'zidan ularning moddiy ne'matlar va xizmatlardan foydalanish darajasi, pul jamg'armalari ko'rsatkichlari bilan o'zaro aloqasini nazarda tutadi va bularga qiladigan xarajatlarini ham statistik o'rganishni talab etadi. Bu tahlilni mukammallashtirish vazifasi aholi yoki oilaning turli maqsadlari uchun qilgan xarajatlarini asosli ravishda ilmiy o'rganishni talab etadi [3].

Aholi turmush darajasini baholash muammolarini mahalliy olimlardan Yo.Abdullayev ta'kidlaganidek, aholi daromadlari oila a'zolari tomonidan muayyan davrda olingan pul va natural ko'rinishdagi mablag'lar qiymati yig'indisini ifodalaydi. Har doim talabda ehtiyojlar darajasi va tarkibi ortib, uning daromadlari miqdoriga bevosita bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi [4].

Q.X.Abdurahmonov "Aholi statistikasi" nomli o'quv qo'llanmasida "Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi" deb ta'rif berilgan [5].

N.Zokirova fikricha, aholi pul daromadlari va iste'mol narxlari o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida iste'mol narxlari o'sishidan aholi daromadlari elastiklik koeffitsiyentini hisoblash mumkin. Bunda fikrimizcha, ikkala elastiklik xususida gapirish mumkin: bir tomondan, daromadlarning o'sishi iste'mol narxlarining oshishi, ish haqi, nafaqa va tushumlarning oshishiga olib keladi [6].

O'zbek milliy statistikasining ham nazariy, ham amaliy tomondan shakllanishida ilmiy-uslubiy manba bo'lib xizmat qilgan prof. N.M.Soatov tahriri ostida chop etilgan "Statistika asoslari" darsligida mualliflar "Aholi turmush darajasi sotsial-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda sotsial turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi" deb ta'rif berishgan [7].

Q.X.Abdurahmonov aholining turmush darajasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Turmush darajasi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi" [8].

M.G.Nazarov tahriri asosida chop etilgan "Ijtimoiy-iqtisodiy statistika kursi" kitobida "Aholi turmush darajasi insonlarning hayot faoliyatining, eng avvalo, iste'mol sohasidagi real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari yig'indisini ifodalovchi murakkab va ko'p

qirrali kategoriya bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi" deb ta'riflanadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mobaynida ilmiy tahlilning umumiy uslublari, shuningdek, maxsus statistik uslublar: anketa orqali tekshirish, statistik guruhlash, tanlanma kuzatish, iqtisodiy indekslar, dinamika qatorlari, korrelatsion-regression tahlil va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darajasi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Aholining turmush darajasini ifodalovchi ayrim muhim ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan[20].

Turmush darajasini baholash uchun ushbu jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar:

- darajaga oid ko'rsatkichlar (mutlaq qiymatlar);

- tarkibiy ko'rsatkichlar (darajaga oid ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlari);

- dinamik (darajaga oid ko'rsatkichlarning o'zgarishini tavsiflaydigan, nisbiy) ko'rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uchta jihat bo'yicha:

a) avvalgi yillardagi turmush darajasi bilan taqqoslash;

b) bir mintaqadagi turmush darajasini boshqa mintaqalardagi (mamlakatlardagi) turmush darajasi bilan taqqoslash;

s) amaldagi turmush darajasini odamlarning minimal va oqilona talablarini ifodalovchi ehtiyojlarning rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

1-jadval

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari va indikatorlari[15]

<i>Turmush darajasi ko'rsatkichlari</i>	<i>Ko'rsatkichlar</i>
I. Asosiy jismoniy ehtiyojlar qondirilishi	
1. Sihat-salomatlik	Ming yoki o'n ming aholi hisobiga jami vafot etganlar soni Bir yoshgacha vafot etgan bolalar soni O'rtacha umr ko'rish uzoqligi Kasallik natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi
2. Ovqatlanish	2.1. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va hokazo.
3. Turar joy	3.1. Turar joylarda uylarning umumiy maydonini ishga tushirish. 3.2. Turar joylarning umumiy maydoni. 3.3. Turar joy jamg'armasini obodonlashtirish. 3.4. Kvartiralarining o'rtacha kattaligi.
4. Uylardagi mol-mulk	4.1. Aholining moddiy-maishiy va xo'jalik buyumlari bilan ta'minlanganligi. 4.2. Aholiga madaniy-maishiy buyumlar sotish va hokazo.
5. Pulli xizmatlar	5.1. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmi. 5.2. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish tarkibi. 5.3. Maishiy xizmatlar hajmi va hokazo.
II. Ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi	
6. Aholining madaniy darajasi	6.1. Aholining ma'lumot darajasi. 6.2. Nashr etilayotgan kitob va risolalar hajmi. 6.3. Chiqarilayotgan jurnallar va boshqa davriy nashrlar hajmi. 6.4. Aholining televizor bilan ta'minlanganligi va hokazo.
III. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish	
7. Mehnat sharoitlari	7.1. Sanoatda ish vaqti nobudgarchiligi (o'rta hisobda bir ishchi hisobiga, kun). 7.2. Xodimlarning mehnat sharoitini o'zgartirish (og'ir jismoniy mehnat bilan band bo'lganlar va hokazo). 7.3. Ishlab chiqarishda shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko'proq ish kuni hisobiga baxtsiz hodisalarda shikastlangan va mehnat qobiliyatini yo'qotganlar hamda 1000 nafar ishlaydigan odam hisobiga shikastlanish o'lim bilan tugallanganlar soni) va hokazo.
8. Dam olish sharoitlari	8.1. Yozgi oromgohlarda dam olgan bolalar soni va hokazo.
9. Ijtimoiy ta'minot	9.1. Pensiyalar va o'rtacha ish haqi va uning eng kam miqdorlari bo'yicha nisbat. 9.2. Bolalarga atalgan nafaqalarning o'rtacha miqdorlari va ularning yashashiga loyiq minimum nisbati. 9.3. Pensiyalar miqdori va tirikchilik minimumi nisbati va hokazo.
10. Ijtimoiy-maishiy vaziyat	10.1. Ishsizlarning umumiy soni. 10.2. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar, qotilliklar va hokazolar oqibatidagi o'lim. 10.3. Ish tashlashlar (ish vaqti nobudgarchiligi kishi-kunlari miqdori, qatnashchilar soni). 10.4. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni. 10.5. Ifloslangan oqar suvlarning chiqarib tashlanish hajmi. 10.6. Havoga ifloslangan moddalar chiqarib tashlanishi va hokazo.
11. Daromadlar va sarf-xarajatlar	11.1. Aholining pul daromadlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha. 11.2. Aholining pul sarf-xarajatlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha. 11.3. Ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi, jumladan, tarmoqlar, mintaqalar va kasblar bo'yicha uning tabaqalanishi. 11.4. Aholining omonatlardagi jamg'armalari va ularning ko'payishi va hokazo.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'allik, mutlaq va nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlaridan keng foydalaniladi.

Minimal iste'mol budjeti – shaxsning rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Aholi turmush darajasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlarini: aholi pul daromadlari va xarajatlari, uning tarkibi va foydalanilishi; daromad bo'yicha aholini taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar tavsiflaydi.

Aholi pul daromadlari barcha kategoriyalardagi aholining mehnati evaziga olgan ish haqi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning daromadlari, nafaqa, tushum, stipendiya, qo'yilmalar bo'yicha foiz ko'rinishida mulkdan olingan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlar, dividendlar, renta, ko'chmas mulkni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva mollarini sotishdan tushumlar, turli xizmatlarni ko'rsatishdan olingan daromadlar va hokazolardan iborat.


Aholi pul xarajatlari va jamg'arish aholining tovarlar va turli xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari, majburiy to'lovlar va turli xil badallar (soliq va yig'imlar, sug'urtaga to'lovlar, ijtimoiy tashkilotlarga badallar, tovar kreditiga foizlar va hokazo) hamda shaxsiy jamg'armalaridan iborat. O'rtacha aholi jon boshiga pul daromadlari pul da-

romadlari umumiy yig'indisini mavjud aholi soniga bo'lish orqali hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat nafaqasi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, aholini ijtimoiy himoyalash organlari hisobida turuvchi pensionerlarning tayinlangan oylik nafaqalari pensionerlar soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tayinlangan nafaqa hajmi amaldagi qonunlarga muvofiq belgilanadi. Tayinlangan nafaqaning real hajmi belgilangan oylik nafaqalarning o'rtacha hajmini iste'mol narxlar indeksiga moslashtirish yo'li bilan hisoblanadi. Oilalarning daromad va xarajatlarni statistik o'rganish uy xo'jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish asosida amalga oshiriladi.

Uy xo'jaligi budjetlarini tekshirish ma'lumotlari aholi daromad tuzilmalari va iste'mol xarajatlarni va aholi turli qatlamlaridagi daromad va xarajatlari o'zgarishini tavsiflaydi, uy xo'jaligi va uning tarkibidagi a'zolarining bandligi bilan bog'langan holda bu darajalardagi farqlarni ochishda foydalaniladi, daromad darajasini iste'mol bilan bog'langan holda shakllantirishda alohida manbalarning rolini ko'rsatadi; iste'mol talablari o'zgarishlarini bosqichma-bosqich ifodalashda foydalaniladi; daromadlar darajasi va aholi turmush darajasini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni differentsiyalashni ifodalaydi.

Tabiiy o'sish koeffitsiyenti 1920-yilga (11,0 promille) nisbatan 9,9 promillega ko'paygan hamda 20,9 promilleni tashkil etgan.




1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonining so'nggi yuz yildagi tabiiy o'sish koeffitsiyenti, 1000 aholiga nisbatan, promille, yillar[18]

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni Mehnat kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55

yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).

2022-yil holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi 107,5 %ni tashkil etdi. Xuddi shu ko'rsatkich 2021-yilning yanvar-dekabr holatiga 110,7 %ni tashkil etgan.



1-rasm. Aholi soninig yosh guruhleri bo'yicha taqsimlanishi 2022-yil [18]

Aholining umumiy daromadlari hajmi sezilarli darajada o'sishi, asosan, umumiy daromadlar tarkibida 61,6 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning da-

romadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 29,8 %ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan (2-jadval).

2-jadval

Aholining umumiy daromadlari tarkibi[18]

	2021-yil	2022-yil
Umumiy daromadlar – jami	100,0 %	100,0 %
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	65,0 %	65,0 %
Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	6,70 %	6,3 %
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,1 %	2,3 %
Transfertlardan olingan daromadlar	26,2 %	29,8 %

3-jadval

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari, ming so'm[18]

Hududlar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
O'zbekiston Respublikasi	9128,6	10891,3	12122,2	14869,8	17807,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6808,7	8136,2	9436,6	11286,5	13253,4
Andijon	8412,0	9941,5	10765,9	12946,1	15727,3
Buxoro	11270,6	13075,7	14675,5	18133,4	21382,0
Jizzax	8512,9	9723,3	10951,7	13244,0	15221,2
Qashqadaryo	7827,9	9149,6	10199,0	12180,8	14678,9
Navoiy	13921,4	16926,9	19922,5	24765,0	27420,4
Namangan	6887,6	8293,1	9258,8	11353,5	13880,7
Samarqand	8087,7	9447,9	10522,8	12919,0	15534,2
Surxondaryo	7622,5	8906,0	9745,0	11824,1	14597,2
Sirdaryo	8353,5	9998,4	10938,3	12794,6	15124,1
Toshkent	9401,6	11296,2	13129,4	16260,0	18129,4
Farg'ona	7096,8	8111,8	8853,5	11276,9	13607,9
Xorazm	9536,1	11213,4	12270,6	15756,4	19643,5
Toshkent sh.	18432,1	23674,3	25543,6	30511,1	37518,0



2-rasm. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilar va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 2021-yil 65,0 %, 2022-yili esa 61,6 %ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 2021-yili 123,4 %, 2022-yili esa 115 %ni tashkil etdi. 2021-yilning mos davriga nisbatan 115,9 %ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 10,3 %ga o'sishini ta'minladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, aholi turmush darajasini oshirish manbalari ijtimoiy dasturlarning amal qilishi uchun resurs hosil qilish omili hisoblanuvchi iqtisodiy o'sish bilan shakllanadi. Bunda, avvalo, iqtisodiy o'sish bilan ijtimoiy

taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shakllanadi. Turmush darajasi statistikasi vazifalariga kishilarning hayot faoliyatiga, moddiy shart-sharoitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, hodisalar va jarayonlarni o'rganish hamda hal etilishi muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini aniqlash kiradi.

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarining yaxshi tuzilgan tizimi ijtimoiy siyosatni samarali ishlab chiqish, kam ta'minlangan aholiga yordam ko'rsatish, asoslangan qarorlar qabul qilish, mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash, davlat va hududiy ijtimoiy dasturlarining amalga oshirishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Turmush darajasining statistik tavsiflari uning kompleks baholanishini ta'minlovchi o'zaro bog'langan ko'rsatkichlarning keng tizimiga asoslanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Елесеєва И.И. Статистика. Учебник. – М.: Проспект, 2017. – 448 с.
2. Салин В.Н. Статистика уровни жизни населения (бакалавриат, магистратура). Учебное пособие. 2019. – 189 стр.
3. Рутгайзер В.А. Оценка стоимости бизнеса. 2007. – 448 с.
4. Abdullayev Yo.A., Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1998. – 382 b.
5. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyoti). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Mehnat, 2016. – 610 b.
6. Zokirova N. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
7. Soatov N.M. Statistika asoslari. Darslik. 2003. – 743 bet.
8. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'l. TDIU, 2019.
9. Назаров М.Г. Курс социально-экономической статистики. 2000. – 771 с.
10. Abdurahmonov A. Aholi statistikasi. O'quv qo'llanma Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
11. Уровень жизни населения 2021. Statistik to'plami. – T., 2021.
12. Abdurahmonov Q. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyoti jamg'armasi nashriyoti. TDIU, 2019. – 159 b.
13. O'zbekistonda mehnat va bandlik – 2018. – T.: O'zbekiston, 2019.
14. Soatov N.M., Nabiyeв X., Ayubjonov A. Statistika. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 543 b.
15. Ayubjonov A.H. Statistika nazariyasi, O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
16. Soatov N.M., Ayubjonov A. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019-y.
17. Umarova M.A. Statistik tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2021-y.
18. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. – T.: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2021.
19. www.stat.uz
20. Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқалар. Аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиши. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2004. 79-б.